Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 07.00.07 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya ixtisosligi bo‘yicha ta’lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalari yuzasidan 2025/2026-o‘quv yili uchun tayyorlangan

TAHLILIY MA’LUMOTLAR

27.12.2025

II. 2025/2026-O‘QUV YILI KESIMIDAGI TAHLIL NATIJALARI

2025/2026-o‘quv yilida ixtisoslik bo‘yicha tadqiqot ko‘lami kengayib, tayanch doktoranturaga D.M. Narbayeva (“Surxon vohasi an’anaviy hunarmandchiligida chorvachilik mahsulotlarining o‘rni (XIX asr oxiri va XXI asr boshlari)”) hamda I.I. Oqbo‘tayev (“Koreys xalqining oilaviy marosimlari transformatsiyasi (Koreya va O‘zbekiston koreyslari misolida)”) qabul qilindi. Mazkur davr monitoringi quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniqladi:

Ta’lim va mehnat bozori ehtiyojlari: Hududiy hunarmandchilik klasterlari, etnoturizm tashkilotlari va milliy madaniy markazlar faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, an’anaviy hunarmandchilik texnologiyalarini tiklash hamda ko‘p millatli hududlarda etnomadaniy munosabatlarni o‘rganuvchi tadqiqotchilarga bo‘lgan amaliy ehtiyoj qondirildi.

Ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalari: An’anaviy moddiy madaniyat va xo‘jalik-hunarmandchilik (chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash an’analari) bilan birga diaspora etnologiyasi va madaniy transformatsiya jarayonlarini (Koreya va O‘zbekiston koreyslari oilaviy marosimlarini komparativ tahlil qilish orqali) o‘rganish zamonaviy ilmiy tendensiya sifatida rivojlandi.

Izlanuvchilarning ta’limiy ehtiyojlari: Yangi qabul qilingan tayanch doktorantlar (D.M. Narbayeva, I.I. Oqbo‘tayev) va yuqori kurs izlanuvchilari uchun xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili va akademik yozuv (Academic Writing) ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar o‘tkazildi.

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i: **B. Jurayev**

Tarix va falsafa kafedrasi mudiri: **D.T.Yaqubova**

CamScanner yordamida skanerlangan